| Tadbirkorlikni innovatsion-investitsion jihatdan baholash uslublari.....                                                | 1134 |
| <b>Fayziyev Shavkat Shaxobidinovich</b>                                                                                 |      |



## TADBIRKORLIKNI INNOVATSION-INVESTITSION JIHATDAN BAHOLASH USLUBLARI

**Fayziyev Shavkat Shaxobidinovich**

Toshkent perfect universiteti “Iqtisodiyot va turizm”  
kafedrasining dotsenti  
ORCID: 0009-0005-9451-5359  
E-mail: dilraboax@gmail.com

**Annotatsiya:** Mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini ta'minlashda tadbirkorlik subyektlarining innovatsion va investitsion salohiyatini aniq baholash dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Ushbu maqolada tadbirkorlik faoliyatini innovatsion-investitsion jihatdan baholashning nazariy asoslari va amaliy yondashuvlari tizimli tarzda o'rganiladi. Xususan, innovatsion salohiyat — tadbirkorlik subyektining yangi mahsulotlar, texnologiyalar, xizmatlar yoki boshqaruv shakllarini ishlab chiqish va joriy etish qobiliyati, investitsion salohiyat esa — korxonaning investitsiya jalb qilish, uni samarali boshqarish va foyda keltiruvchi faoliyatga yo'naltirish imkoniyatidir. Maqolada O'zbekiston misolida innovatsion-investitsion baholash amaliyoti, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar keltirilgan. Xususan, korxonalarda zamonaviy baholash mexanizmlarini joriy etish, raqamli tahlil vositalaridan foydalanish va davlat tomonidan rag'batlantirish mexanizmlarini kengaytirish muhim yo'nalishlar sifatida ko'rsatilgan. Ushbu tadqiqot natijalari tadbirkorlik subyektlari, tahlilchilar, siyosatchilar va ilmiy doiralar uchun innovatsion-investitsion baholash yondashuvlarini takomillashtirishda muhim amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** tadbirkorlik, innovatsion tadbirkorlik, investitsion faoliyat, salohiyat, iqtisodiy tahlil, kompleks baholash, ko'rsatkichlar, tahlil, samaradorlik, moliyaviy barqarorlik, innovatsion rivojlanish, biznes, strategiya, investitsiya.

**Abstract:** A precise assessment of the innovative and investment potential of business entities remains an urgent issue in ensuring the competitiveness of the national economy. This article systematically examines the theoretical foundations and practical approaches to assessing entrepreneurial activity from an innovative-investment perspective. In particular, innovative potential refers to a business entity's capacity to develop and introduce new products, technologies, services, or management forms. Investment potential, on the other hand, refers to an enterprise's ability to attract investment, manage it effectively, and direct it toward profitable activities. Using Uzbekistan as a case study, the article presents the current practices of innovative-investment assessment, identifies existing problems, and proposes solutions. The introduction of modern assessment mechanisms, the application of digital analysis tools, and the expansion of state-supported incentive mechanisms are highlighted as key directions. The results of this study serve as a valuable practical basis for enhancing innovative-investment assessment approaches for business entities, analysts, policymakers, and academic circles.

**Key words:** entrepreneurship, innovation entrepreneurship, investment activity, potential, economic analysis, comprehensive assessment, indicators, analysis, efficiency, financial stability, innovation development, business, strategy, investment.



**Аннотация:** Вопрос точной оценки инновационного и инвестиционного потенциала субъектов предпринимательства остаётся актуальным в обеспечении конкурентоспособности национальной экономики. В статье систематически рассматриваются теоретические основы и практические подходы к оценке предпринимательской деятельности с инновационно-инвестиционной точки зрения. Под инновационным потенциалом понимается способность хозяйствующего субъекта разрабатывать и внедрять новые продукты, технологии, услуги или формы управления. Инвестиционный потенциал подразумевает способность предприятия привлекать инвестиции, эффективно ими управлять и направлять на прибыльную деятельность. На примере Узбекистана в статье представлены существующие практики инновационно-инвестиционной оценки, выявлены актуальные проблемы и предложены пути их решения. Внедрение современных механизмов оценки, использование цифровых аналитических инструментов и расширение государственных стимулов обозначены как ключевые направления. Результаты исследования служат важной практической основой для совершенствования подходов к оценке инновационного и инвестиционного потенциала предприятий, аналитиков, политиков и научных кругов.

**Ключевые слова:** предпринимательство, инновационное предпринимательство, инвестиционная деятельность, потенциал, экономический анализ, комплексная оценка, показатели, анализ, эффективность, финансовая устойчивость, инновационное развитие, бизнес, стратегия, инвестиции.

## KIRISH

Hozirgi globallashuv va tez sur'atlar bilan o'zgarayotgan iqtisodiy muhit sharoitida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda yangicha yondashuvlarga ehtiyoj ortib bormoqda. Ayniqsa, innovatsion texnologiyalar va investitsion resurslar negizida shakllanadigan samarali biznes modellar iqtisodiyotni modernizatsiya qilishda muhim o'rin tutmoqda. Shu bois, bugungi kundagi iqtisodiy islohotlar jarayonida innovatsion-investitsion faoliyatni kompleks baholash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etib, u tadbirkorlik subyektlarining istiqbolli yo'nalishlarini aniqlash, resurslardan samarali foydalanish darajasini belgilash hamda raqobatbardoshlikni oshirishda muhim vosita sifatida maydonga chiqmoqda.

Innovatsion-investitsion tadbirkorlik hozirgi davrda nafaqat yangi texnologiyalarni ishlab chiqish, balki ularni iqtisodiy faoliyatga samarali integratsiyalash, moliyaviy vositalarni oqilona jalb qilish hamda iste'molchilarning talablariga mos mahsulot va xizmatlar yaratish imkonini ham taqdim etadi. Shu nuqtai nazardan, tadbirkorlik faoliyatining faqat moliyaviy yoki ishlab chiqarish samaradorligi asosida baholanishi yetarli emas. Unga qo'shimcha ravishda innovatsion yondashuvlar va investitsion omillar asosida baholash tizimlarini joriy etish lozim. Bu esa, o'z navbatida, tadbirkorlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi mexanizmlarni takomillashtirish, xatarlarning oldini olish hamda samaradorlikni oshirish imkonini beradi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar jarayonida innovatsion rivojlanish, xususan, ilmiy-texnik yangiliklarning amaliyotga tatbiq etilishi alohida e'tibor markazida turibdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasida ham innovatsion iqtisodiyot, yuqori texnologiyalarni joriy etish va investitsiya muhitini yaxshilash borasidagi muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu jarayonlarda tadbirkorlik subyektlarining innovatsion va investitsion faolligini baholash orqali ularni tahlil qilish va rag'batlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Innovatsion-investitsion baholash deganda, tadbirkorlik subyektlarining innovatsiyalarni yaratish, joriy etish va undan daromad olish imkoniyatlarini, shuningdek, investitsion resurslarni jalb qilish, ularni samarali yo'naltirish, investitsion qarorlarni qabul qilish va amalga oshirish qobiliyatini o'lchash, baholash hamda tahlil qilish tizimi tushuniladi. Bunday yondashuv tadbirkorlik faoliyatining istiqbolli rivojlanish yo'nalishlarini aniqlash bilan birga, investorlar va manfaatdor tomonlar uchun ham ishonchli axborot manbai bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli, baholash uslublarini takomillashtirish, amaliyotda qo'llaniladigan metodikalarning aniqligi va samaradorligini oshirish zarur bo'lmoqda.

Hozirgi kunda innovatsion va investitsion baholashga oid ko'plab metodologik yondashuvlar mavjud. Ular orasida SWOT tahlil, AHP (analitik ierarxiya jarayoni), integral ko'rsatkichlar asosida baholash, ekspertlar fikriga asoslangan usullar, muqobil variantlar bo'yicha qaror qabul qilish mexanizmlari va boshqa usullar keng qo'llaniladi. Biroq amaliyotda ularning har biri turli sharoitlarda turlicha samaradorlik ko'rsatadi. Shu bois, baholash usullarini tanlash va qo'llashda innovatsion sohaning xususiyatlari, investitsion muhit, hududiy imkoniyatlar, inson kapitali hamda boshqa muhim omillar e'tiborga olinishi zarur.

Tadbirkorlik faoliyatining innovatsion va investitsion jihatdan baholanishi, avvalo, chuqur tahlil, raqamli ifoda, zamonaviy statistik va iqtisodiy model hamda algoritmlardan foydalanishni talab etadi. Shu bilan birga, innovatsion tadbirkorlik subyektlarining ichki va tashqi omillarga qay tarzda javob berishi, raqobatbardoshlik darajasini aniqlash, biznes-rejalarning real hayotga mosligini baholash ham muhim omil bo'lib qolmoqda.



Bularning barchasi esa tadbirkorlik faoliyatida puxta va kompleks baholash tizimini ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi.

Yana bir muhim jihat shundaki, zamonaviy baholash tizimlari axborot texnologiyalariga asoslangan, avtomatlashtirilgan va tezkor qaror qabul qilish imkonini beruvchi mexanizmlar orqali rivojlanmoqda. Bu esa tadbirkorlik subyektlariga tezkor va ishonchli axborot olish, qarorlarni optimallashtirish va resurslarni aniq yo'naltirish imkonini beradi. Innovatsion-investitsion faoliyatni baholash jarayonida raqamli platformalardan foydalanish, sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar (big data) texnologiyalarini joriy etish orqali tahlil sifatini oshirish bugungi kunning dolzarb talabi bo'lib qolmoqda.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tadbirkorlikni innovatsion-investitsion jihatdan baholash masalasi so'nggi yillarda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va barqaror o'sishni ta'minlash yo'lida muhim ilmiy yo'nalishga aylangan. Bu yo'nalish bo'yicha ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan, turli nazariy yondashuvlar taklif qilingan va baholash uslublari ishlab chiqilgan. Masalan, Bektemirov A.B., Ruzibayeva N.X. va Azimova R.I. innovatsion-investitsion faoliyatni baholashda kompleks yondashuv zarurligini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, "innovatsion va investitsion faoliyat o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, baholashda nafaqat moliyaviy, balki texnologik, ilmiy va strategik ko'rsatkichlar ham hisobga olinishi lozim" [3]. Mualliflar yangi mahsulotlar ulushi, ilmiy-tadqiqot ishlariga yo'naltirilgan mablag'lar, investitsiyalarning qaytish darajasi kabi ko'rsatkichlarni asosiy baholash mezonlari sifatida ilgari suradilar. Shuningdek, ular baholashda zamonaviy indekslar va ekspert tahlil uslublariidan foydalanishni taklif etadilar.

G'ozibekov D.G'. investitsiyalarni baholashda ularning moliyalashtirish manbalarini aniqlashga alohida urg'u beradi. Uning fikricha, "investitsiya faoliyatining samaradorligi uni moliyalashtirish mexanizmlarining barqarorligi va manba turlarining xilma-xilligiga bevosita bog'liq" [5]. Bunga asoslanib aytish mumkinki, innovatsion-investitsion jarayonlarni baholashda investitsiyaning manbai, hajmi va foydalanish samaradorligi muhim mezon bo'lib xizmat qiladi. Muallif, shuningdek, tashqi va ichki moliyaviy manbalar o'rtasidagi optimal nisbatni aniqlashni investitsiyalarning iqtisodiy ta'sirini baholashda asosiy omil sifatida ko'rsatadi.

Bayxonov B.T. investitsiyalarning samaradorligini baholashda tarmoqlararo taqsimot va ularning iqtisodiyotga ta'sirini chuqur tahlil qiladi. Uning fikricha, "investitsion resurslarni iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha maqbul taqsimlash orqali innovatsion rivojlanishning istiqbollari va investitsiyalarning rentabelligi oshiriladi" [6]. Bunga asoslanib aytish mumkinki, innovatsion-investitsion faoliyatni baholashda tarmoq xususiyatlarini hisobga olgan ekonometrik modellashirish yondashuvi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Muallif optimal taqsimotni aniqlash uchun statistik tahlil va matematik modellarga tayanishni taklif etadi.

Zayirov L., Nasirov E., Xanova N. va Asamxo'jayeva Sh. innovatsion-investitsion faoliyatni baholashda investitsiyalarning yo'naltirilgan sohalari, ularning iqtisodiy samaradorligi va innovatsion salohiyat bilan uzviy bog'liqligiga e'tibor qaratadilar. Ularning fikricha, "investitsiyalarni baholashda faqat moliyaviy ko'rsatkichlar emas, balki innovatsion yechimlarning joriy etilish darajasi ham hisobga olinishi lozim" [8]. Bu esa investitsiyalarning nafaqat qisqa muddatli foydasini, balki kelgusidagi innovatsion rivojlanish imkoniyatlarini ham aniqlashda muhim mezon bo'lib xizmat qiladi.

So'nggi yillarda xalqaro platformalarda e'tirof etilgan V.K. Ivanov va hamkasblari texnik innovatsiyalarni baholashda ekspertli tizimlar yaratish ustida ishlaganlar. 2021-yilda ular algoritmik yondashuvlar yordamida "yangilik", "ahamiyat" va "jismoniy amalga oshirish" kabi innovatsiya komponentlarini aniqlashni taklif etganlar. Ushbu metodika operatorlarning xatolarini kamaytiradi va noaniq ma'lumotlar asosida aniq baholash imkonini beradi [9].

Nikonova Y.I. va Kazakov V.V. innovatsion faoliyatni baholashda moliyaviy ta'minot manbalari barqarorligi va ularning xilma-xilligiga alohida e'tibor qaratadilar. Ularning fikricha, "innovatsion faoliyatni samarali moliyalashtirish va baholashda davlat qo'llovi, tashqi investitsiyalar va ichki resurslar uyg'unligi muhim ahamiyat kasb etadi" [4]. Mualliflar baholashda kompleks yondashuv, tizimlashtirilgan indikatorlar va subyektiv omillarni minimallashtirishni taklif etadilar. Bu esa innovatsion-investitsion jarayonlarni aniq tahlil qilish va strategik qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Merekina E.V. innovatsion-investitsion faoliyatni baholashda korxonaning innovatsion salohiyati va investitsion resurslarni boshqarish qobiliyatini aniqlash muhimligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, "tadbirkorlik subyektlarining innovatsion-investitsion faoliyatini baholashda nafaqat moliyaviy va ishlab chiqarish resurslari, balki inson kapitali va intellektual salohiyat ham strategik omillar hisoblanadi" [7]. Bu yondashuvga asoslanib aytish mumkinki, baholashda faqat joriy iqtisodiy ko'rsatkichlarni emas, balki uzoq muddatli rivojlanish imkoniyatlarini ham e'tiborga olish zarur.



## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot innovatsion-investitsion tadbirkorlik faoliyatini chuqur tahlil qilish, baholash mezonlarini aniqlash va ularni amaliyotda qo'llash imkoniyatlarini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot metodologiyasi sifatida ilmiy-nazariy manbalarni tahlil qilish, mavjud baholash uslublarini solishtirish hamda raqamli ma'lumotlar asosida empirik tahlil o'tkazish kabi yondashuvlar tanlandi. Baholash jarayonida innovatsion faoliyat ko'rsatkichlari va investitsion samaradorlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar statistik metodlar asosida o'rganildi. Bunda grafik tahlil, korrelyatsiya va regressiya modellari, shuningdek, ekspert baholari asosida mezonlarni shakllantirish usullari qo'llanildi.

Shuningdek, ayrim tadbirkorlik subyektlarining faoliyati real misollar asosida tahlil qilinib, ularning innovatsion yondashuvlari va investitsion qarorlarining iqtisodiy natijalari o'rganildi. Metodologik yondashuvda xalqaro baholash standartlari va milliy iqtisodiy sharoitlar o'zaro solishtirilib, mahalliy sharoitlarga mos keluvchi uslubiy model ishlab chiqildi. Ushbu yondashuv innovatsion va investitsion ko'rsatkichlarni birgalikda baholash imkonini berib, natijalarning real iqtisodiy vaziyatga mosligini ta'minladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadbirkorlik faoliyatini innovatsion-investitsion jihatdan baholash zamonaviy iqtisodiyotni boshqarishda muhim vosita hisoblanadi. Innovatsiyalar va investitsiyalar har qanday xo'jalik yurituvchi subyektning barqaror o'sishi, raqobatbardoshligini oshirishi va istiqbolli rivojlanishini ta'minlaydi. Shu bois, ularni baholash nafaqat korxona darajasida, balki butun iqtisodiyot miqyosida ham strategik ahamiyat kasb etadi. Mazkur baholash yondashuvlari orqali tashkilotning yangi texnologiyalarni joriy etish darajasi, ilmiy-tadqiqotga yo'naltirilgan resurslar, investitsiyalarni jalb qilish salohiyati, investitsiya samaradorligi va moliyaviy natijalari tahlil qilinadi.

Innovatsion-investitsion baholashning maqsadi — korxonaning mavjud imkoniyatlarini aniqlash, istiqbolli yo'nalishlarni belgilash, risklarni minimallashtirish va optimal boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishga ko'maklashishdan iborat. Ushbu baholashda faqat moliyaviy ko'rsatkichlar emas, balki sifat omillari ham e'tiborga olinadi. Misol uchun, intellektual salohiyat, kadrlar malakasi, texnologik tayyorgarlik va innovatsion muhit sifati kabi omillar bevosita korxonaning innovatsion faoliyatiga ta'sir etadi. Shu boisdan, baholash yondashuvlari kompleks, ko'p mezonli va moslashuvchan bo'lishi lozim.

Innovatsion-investitsion faoliyatni baholashda asosiy uslublar quyidagilardan iborat: ko'rsatkichlar tizimi asosidagi baholash, indekslash usuli, ekspert baholash yondashuvi, iqtisodiy-matematik modellashirish, SWOT va PEST-tahlil, hamda investitsion loyihalarni tahlil qilishda Net Present Value (NPV), Internal Rate of Return (IRR), Profitability Index (PI) kabi indikatorlar. Bularning har biri o'ziga xos afzallik va cheklovlarga ega bo'lib, tadqiqot maqsadi va mavjud ma'lumotlar asosida tanlab qo'llanadi.

Baholash yondashuvlarining tanlanishi soha xususiyati, mavjud resurslar, korxona hajmi va texnologik tayyorgarlik darajasiga bog'liq. Yirik sanoat korxonalari uchun ekonometrik modellashirish va investitsion tahlil usublari maqsadga muvofiq bo'lsa, kichik tadbirkorlik subyektlari uchun soddalashtirilgan indekslash yoki ekspert yondashuvi samaraliroq bo'lishi mumkin.

Quyida innovatsion-investitsion baholashda keng qo'llaniladigan uslublarning qisqacha tavsifi, ularning afzallik va cheklovlari bilan birga jadvalda taqdim etiladi (1-jadval):

1-jadval. Tadbirkorlikni innovatsion-investitsion jihatdan baholash uslublari<sup>1</sup>

| № | Baholash uslubi                        | Mazmuni                                                                     | Afzalliklari                                      | Cheklovlari                                           |
|---|----------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------|-------------------------------------------------------|
| 1 | Ko'rsatkichlar tizimi asosida baholash | Innovatsiya va investitsiyaga oid miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari tahlili | Oddiy, tushunarli, solishtirma tahlil uchun qulay | Yuqori darajada subyektivlik mavjud                   |
| 2 | Indekslish usuli                       | Maxsus indekslar (masalan, innovatsion indeks) orqali baholash              | Raqamli mezonlar aniq, trendlarni ko'rsatadi      | To'liq manzara bermaydi, umumlashtirish talab etiladi |
| 3 | Ekspert baholash                       | Sohadagi mutaxassislar fikri asosida baholash                               | Malaka asosida chuqur baholash                    | Subyektivlik darajasi yuqori, takrorlanuvchanlik past |
| 4 | SWOT tahlil                            | Kuchli va zaif tomonlar, imkoniyat va xavf-xatarlar tahlili                 | Strategik qarorlar uchun foydali                  | Sifatli ma'lumotlarga asoslangan, umumiy yondashuv    |
| 5 | PEST tahlil                            | Siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik omillar tahlili                  | Tashqi muhit tahlilida yordam beradi              | Ichki omillar hisobga olinmaydi                       |

<sup>1</sup> Muallif tomonidan tayyorlandi



|    |                                 |                                                                                   |                                                        |                                                                      |
|----|---------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------|
| 6  | NPV – Net Present Value         | Investitsiya loyihasining hozirgi qiymatini aniqlash                              | Moliyaviy foydani aniqlash uchun ishonchli ko'rsatkich | Kelajakdagi pul oqimlarini aniq bashorat qilish qiyin                |
| 7  | IRR – Ichki rentabellik normasi | Investitsiyalarning yillik rentabelligini hisoblash                               | Loyiha samaradorligini tez baholash                    | Murakkab investitsion loyihalarda noto'g'ri natijalar berishi mumkin |
| 8  | PI – Foyda koeffitsienti        | Investitsiyaning bir birligiga to'g'ri keladigan foyda hajmi                      | Loyiha tanlashda qulay, foydalilikni ko'rsatadi        | NPV bilan solishtirganda kamroq aniqlik beradi                       |
| 9  | Ekonometrik modellashtirish     | Innovatsion va investitsion jarayonlarni matematik modellar asosida tahlil qilish | Raqamli, aniq tahlil imkonini beradi                   | Yuqori hisoblash salohiyati va sifatli ma'lumot talab qiladi         |
| 10 | Kompleks baholash yondashuvi    | Turli uslublarni birlashtirib, umumiy baho chiqarish                              | Ko'p jihatli yondashuv, moslashuvchan                  | Murakkab, ko'p resurs talab qiladi                                   |

Yuqoridagi jadvalda taqdim etilgan baholash uslublari tadbirkorlikni innovatsion-investitsion jihatdan baholashda keng qo'llaniladi va har birining o'ziga xos metodologik yondashuvi mavjud. Har bir uslubning kuchli va zaif tomonlari mavjud bo'lib, ularning tanlanishi tadqiqot maqsadi, ma'lumotlar mavjudligi, baholash sohasi va qaror qabul qiluvchining ehtiyojlariga bog'liq.

Ko'rsatkichlar tizimi asosida baholash eng sodda va intuitiv usullardan biri bo'lib, ayniqsa kichik biznes subyektlari uchun qulaydir. Bu yondashuv orqali mavjud resurslar, innovatsiyaga yo'naltirilgan investitsiyalar, yangi mahsulotlar va xizmatlar soni kabi omillar tahlil qilinadi. Biroq, bu uslub subyektiv yondashuvlarga moyil bo'lib, chuqur tahlil talab qilinadigan holatlarda yetarli aniqlik bermasligi mumkin.

Indekslash usuli zamonaviy tahlil vositalaridan biri hisoblanadi. Bu yondashuvda innovatsion va investitsion indekslar orqali jarayonlar holati aniqlanadi. U trendlar va solishtirma baholarni ko'rsatishda foydali bo'lsa-da, faqat raqamli ma'lumotlarga asoslanganligi sababli chuqur tahlil uchun yetarli emas. Ekspert baholash esa amaliyotda ko'p ishlatiladigan usul bo'lib, mutaxassislarining tajribasiga asoslanadi. Bu uslub sifatli baholashni ta'minlasa-da, yuqori subyektivlik darajasiga ega.

Strategik yondashuvlar — SWOT va PEST tahlillar — ko'proq tashqi va ichki muhit tahliliga yo'naltirilgan bo'lib, qaror qabul qilishda foydalidir. Ular orqali tadbirkorlikning imkoniyatlari, tahdidlar, ichki salohiyat va tashqi omillar aniqlanadi. Moliyaviy ko'rsatkichlarga asoslangan yondashuvlar — NPV, IRR, PI — investitsion loyihalarning iqtisodiy samaradorligini aniqlashda ishonchli vositalardir. Ular investitsiyaning qaytish muddati, foyda miqdori va risklarini aniqlab beradi.

Ekonometrik modellashtirish esa ilmiylik darajasi yuqori bo'lgan baholash vositasi bo'lib, katta ma'lumotlar bazasiga asoslangan matematik yondashuvdir. Bu uslub tarmoq, hudud yoki butun iqtisodiyot miqyosida kompleks baho chiqarishga imkon beradi. Biroq, u yuqori texnik tayyorgarlik va statistik malaka talab qiladi. Kompleks baholash yondashuvi esa barcha metodlarning ijobiy tomonlarini birlashtirib, eng to'liq va moslashuvchan tahlilni taqdim etadi.

Umuman olganda, tadbirkorlikni innovatsion-investitsion jihatdan baholashda yagona ideal uslub mavjud emas. Baholash mezonlari va yondashuvlar konkret sharoit va maqsadlarga mos ravishda tanlanishi lozim. Shu bois, ko'p hollarda turli yondashuvlarning kombinatsiyasi (gibrid metodologiya) eng to'g'ri natijalarni beradi. Bunday kompleks yondashuv tadbirkorlik subyektlarining real salohiyatini aniq tahlil qilishga xizmat qiladi va strategik boshqaruv qarorlarini asoslashda muhim rol o'ynaydi.

Tadbirkorlik faoliyatini innovatsion va investitsion jihatdan baholash sohasida xorijiy olimlar tomonidan ishlab chiqilgan metodlar xalqaro miqyosda keng qo'llanilmoqda. Bu usullar nafaqat kompaniya ichidagi moliyaviy samaradorlikni aniqlash, balki innovatsiyalarni joriy etish, bozor muhitiga moslashuvchanlik, texnologik yangiliklar va sarmoya oqimlarining strategik boshqaruvi kabi omillarni ham chuqur tahlil qilishga qaratilgan.

Xorijiy tadqiqotlarda innovatsion rivojlanish ko'rsatkichlari, startaplar faoliyatining bahosi, risklarni boshqarish tizimi, intellektual mulkdan foydalanish hamda ijtimoiy ta'sirni baholash metodlari asosiy o'rinda turadi. Masalan, P.F. Drucker tadbirkorlikni innovatsion yondashuvlar orqali rivojlantirish zarurligini ta'kidlagan bo'lsa, M. Porter innovatsion faoliyatni raqobat ustunligi bilan bog'liq holda baholash usullarini ilgari surgan. Xalqaro tashkilotlar, jumladan, OECD, World Bank va WIPO kabi institutlar ham o'z hisobotlarida tadbirkorlikning innovatsion-investitsion komponentlarini baholovchi ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqqan.

Ayrim olimlar, masalan, Joseph Schumpeter innovatsiyani iqtisodiy o'sishning asosiy dvigateli sifatida ko'rib, uni baholash mezonlarini tizimlashtirgan. Zamonaviy olimlardan Henry Chesbrough esa ochiq innovatsiyalar konsepsiyasi orqali korxonalarning tashqi manbalarni jalb etish qobiliyatini baholashni taklif etadi. Quyida jadvalda xorijlik olimlar tomonidan ishlab chiqilgan usullar va ularning mazmuni ko'rib chiqiladi (2-jadval).

2-jadval. Tadbirkorlikni innovatsion-investitsion jihatdan baholash bo'yicha xorijiy olimlar ishlanmalari<sup>2</sup>

| №  | Olim (muallif)            | Asar yoki yondashuv nomi        | Baholash uslubi tavsifi                                                                                       |
|----|---------------------------|---------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1  | Peter F. Drucker          | Innovation and Entrepreneurship | Innovatsiyani tashkilotning asosiy vazifasi sifatida belgilaydi, samaradorlikni innovatsiya orqali baholaydi. |
| 2  | Michael E. Porter         | Competitive Advantage           | Innovatsiyani raqobat ustunligi bilan bog'laydi, investitsion qarorlarni tahlil qiladi.                       |
| 3  | Joseph Schumpeter         | Theory of Economic Development  | Innovatsiyani iqtisodiy o'sish omili sifatida baholab, yangilanish mexanizmlarini ko'rsatadi.                 |
| 4  | Henry Chesbrough          | Open Innovation                 | Ochiq innovatsiyalar yondashuvi, tashqi resurslar jalb etilishi bo'yicha baholash                             |
| 5  | Clayton Christensen       | The Innovator's Dilemma         | Innovatsion texnologiyalarni joriy etishdagi strategik noaniqliklar tahlilini amalga oshiradi.                |
| 6  | Eric von Hippel           | Democratizing Innovation        | Foydalanuvchi innovatsiyalarini baholash yondashuvini ilgari suradi.                                          |
| 7  | W. Chan Kim, R. Mauborgne | Blue Ocean Strategy             | Innovatsion qadriyat yaratish orqali yangi bozorlar shakllantirishni baholaydi.                               |
| 8  | OECD                      | Oslo Manual                     | Innovatsion faoliyatni o'lchovchi indikatorlar tizimini ishlab chiqqan.                                       |
| 9  | World Bank                | Doing Business Reports          | Investitsion muhiti va tadbirkorlik innovatsiyasi ko'rsatkichlarini tahlil qiladi.                            |
| 10 | WIPO                      | Global Innovation Index         | Davlatlar va korxonalar innovatsion salohiyatini ko'rsatkichlar asosida baholaydi.                            |

Ushbu jadvaldan ko'rinib turibdiki, xorijiy olimlar tomonidan ishlab chiqilgan innovatsion-investitsion baholash uslublari juda keng ko'lamli va turli yondashuvlarga asoslangan. Peter Drucker tadbirkorlikni innovatsiyalarsiz tasavvur qilib bo'lmastligini ta'kidlaydi va samaradorlik mezonini aynan yangilik kiritish orqali o'lchaydi. Uning yondashuvi bugungi korxonalar uchun strategik ahamiyat kasb etadi. Michael Porter esa innovatsiyani raqobat ustunligini shakllantiruvchi omil sifatida ko'rib, investitsiya qarorlarini ham shu asosda baholaydi.

Joseph Schumpeter tomonidan ilgari surilgan nazariya innovatsiyani iqtisodiy o'sishning asosiy omili sifatida e'tirof etadi. Bu yondashuvda innovatsion faoliyatni baholash yangilanish jarayonlari, texnologik o'zgarishlar va kreativ buzilishlar orqali amalga oshiriladi. Henry Chesbrough tomonidan ishlab chiqilgan ochiq innovatsiyalar modeli esa bugungi global iqtisodiy aloqalarda korxonalarning tashqi bilim va investitsiya manbalariga bog'liqligini hisobga oladi.

OECD tomonidan ishlab chiqilgan Oslo Manual esa innovatsion faoliyatni baholashda xalqaro me'zonlarni taklif etadi. Ushbu qo'llanma asosida ko'plab davlatlar innovatsion siyosatini shakllantiradi. Shuningdek, WIPO tomonidan taqdim etilgan Global Innovation Index yondashuvi global miqyosda innovatsion salohiyatni o'lchashga xizmat qiladi. Ushbu uslub mamlakatlar va korxonalar innovatsion imkoniyatlarini baholovchi universal vosita sifatida e'tirof etiladi.

Umuman olganda, xorijiy olimlar va tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan baholash metodologiyalari tadbirkorlikni har tomonlama o'rganish va real baho berishda keng imkoniyatlar yaratadi. Ularning har biri turli omillarni inobatga olgan holda baholashga yo'naltirilgan bo'lib, innovatsion-investitsion rivojlanishni boshqarishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, tadbirkorlikni innovatsion-investitsion jihatdan baholash zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning ajralmas tarkibiy qismi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada innovatsion faoliyat va investitsiyalarning o'zaro bog'liqligi, ularni baholashda qo'llaniladigan asosiy yondashuvlar, ilmiy qarashlar va amaliy ko'rsatkichlar tahlil qilindi. Tahlil natijalariga ko'ra, innovatsiyalarni samarali joriy qilish va investitsiyalarni oqilona yo'naltirish orqali tadbirkorlik subyektlarining raqobatbardoshligi, barqarorligi va innovatsion salohiyati ortadi.

Mavzuga doir o'rganilgan yondashuvlar asosida quyidagi takliflar ilgari surildi:

Yagona metodologik yondashuvni ishlab chiqish. Innovatsion va investitsion faoliyatni baholashning milliy xususiyatlarga mos yagona indikatorlar tizimini ishlab chiqish va u asosida korxonalarning tahlilini amalga oshirish lozim.

<sup>2</sup> Muallif tomonidan tayyorlandi



Ma'lumotlar bazasini kengaytirish. Davlat statistikasi va korxonalar hisobot tizimida innovatsion faoliyat, texnologik yangilanishlar va investitsion oqimlarga oid ma'lumotlarni to'plash va ularni ochiq formatda taqdim etish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rish zarur.

Kompleks baholash yondashuvini joriy etish. Tadbirkorlik faoliyatining innovatsion va investitsion jihatlarini birgalikda tahlil qilish imkonini beruvchi kompleks, ko'p omilli tahlil usullarini ishlab chiqish kerak. Ushbu yondashuv strategik qarorlarni asoslashda muhim rol o'ynaydi.

Xalqaro tajribalarni o'rganish va joriy etish. OECD, WIPO, World Bank kabi tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan indikatorlar va baholash modellari asosida mahalliy sharoitga moslashtirilgan metodlarni ishlab chiqish va tatbiq etish samarali natija beradi.

Ekspert tahlillar sifatini oshirish. Mutaxassislar ishtirokida amalga oshiriladigan ekspert baholash usullarini standartlashtirish va ularni raqamli platformalar orqali avtomatlashtirish tavsiya etiladi. Bu subyektivlikni kamaytiradi va natijalarni takroriy tahlil qilish imkonini yaratadi.

Innovatsion infratuzilmani baholovchi indikatorlarni joriy etish. Texnoparklar, innovatsion markazlar va ilmiy-tadqiqot institutlari faoliyatini baholash orqali tadbirkorlikning innovatsion salohiyati kengroq tahlil qilinadi.

Raqamli texnologiyalarni joriy etish. Baholash jarayonlarida Big Data, sun'iy intellekt va iqtisodiy-matematik modellar kabi zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali aniqroq, tezroq va ishonchli natijalarga erishish mumkin.

Umuman olganda, tadbirkorlikni innovatsion-investitsion jihatdan baholash korxonaning strategik rivojlanish yo'nalishini belgilash, resurslardan oqilona foydalanish, investitsion qarorlarni asoslash va innovatsion faollikni rag'batlantirishda muhim vositadir. Bu yo'nalishda mamlakatimizda tizimli yondashuv va ilmiy asoslangan qarorlar asosida ishlash — milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Shu bois, baholash usullarini yanada takomillashtirish, metodologiyalarni zamonaviylashtirish va ularni amaliyotga tatbiq etish dolzarb ilmiy va amaliy vazifa hisoblanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi "2022–2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF–165-sonli Farmoni. <https://lex.uz/en/docs/-6102462>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi "2022–2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ–307-sonli Qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-6102466?ONDATE=07.07.2022%2000>
3. Bektemirov A.B., Ruzibayeva N.X., Azimova R.I. Investitsiya va innovatsiyalar. O'quv qo'llanma. – Toshkent: 2020. – 432 b.
4. Никонова Я.И., Казаков В.В. Механизм финансового обеспечения инновационной деятельности экономических систем. // Вестник Томского государственного университета, 2012. – С. 127.
5. G'ozibekov D.G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. – T.: "Moliya" nashriyoti, 2003. – 26 b.
6. Bayxonov B.T. O'zbekiston iqtisodiyotida investitsiyalarning tarmoqlararo taqsimlanishini ekonometrik modellashtirish uslubiyotini takomillashtirish. Monografiya. – Toshkent: "Iqtisodiyot", 2017. – 203 b.
7. Мерекина Е.В. Инвестиционная привлекательность альтернативных инвестиционных фондов: Дис. ... канд. экон. наук: 08.00.10. – Москва, 2018. – 201 с.
8. Зайиров Л., Насиров Э., Ханова Н., Асамходжаева Ш. Инвестиции. Учебное пособие. – Т.: "Иқтисод-Молия", 2019. – 448 с.
9. Иванов В.К., Образцов И.В., Палюк Б.В. Implementing an expert system to evaluate technical solutions innovativeness. – М.: 2021.
10. <http://www.lex.uz> – O'zbekiston Respublikasi qonunlari bazasi sayti.
11. <https://www.imv.uz> – Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy sayti.
12. <http://www.soliq.uz> – O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi rasmiy sayti.
13. <http://www.stat.uz> – O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy sayti.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2025. № 6**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---